

O'ZBEK TILIDAGI PAREMIYALARNING CHOG'ISHTIRMA ASPEKTDAGI TADQIQI

Nabiyeva Kumush Dilshod qizi

Alisher Navoiy nomidagi toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17461476>

Kirish: O'zbek tilini o'rganish va uni rivojlantirish borasida juda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilganligini bilamiz, albatta. So'nggi yillarda o'zbek tilining yangi sohasi bo'lmish psixolingvistika, neyrolingvistika, lingvokulturologiya yo'nalishlarida ham bir qancha ko'zga ko'rinadigan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Lingvistik tadqiq metodlari rang-barang bo'lgani holda fanimizda ularning mukammal tasnifi haligacha berilmagan. Lingvistik tadqiq metodlari odatda sixronik va diaxronik tadqiq usullari sifatida ikki guruhga ajratiladi.

Xorij tilshunosligida maqollarni o'rganishning ikki umumiy yo'na lishi mavjud: "Birinchisi Yevropa va Rossiya tilshunosligiga taalluqli bo'lib, maqollardagi mantiqiy munosabat va semantik aloqasi sturktur va semiotik aspektlarda o'rganishga yo'naltirilgan, ikkinchisi Buyuk Britaniya va AQShda taraqqiy etayotgan bo'lib, maqollarning kommunikatsiya va ijtimoiy hayotdagi roli tadqiqini qamrab olgan".

Ma'lumotlarga ko'ra, paremiologiya termini XII asrda yuzaga kelgan va fan sifatida o'rganila boshlagan. Paronimiya grekcha «hikmatli so'z zarbulmasal» ma'nosini anglatib, o'sha paytlarda cherkovlarda bo'lib o'tadigan bayramlarda o'z ma'nosiga ko'ra ishlatilgan. Paremiya aytuv chilar alohida hurmatga sazovor shaxslar bo'lgan, ular maxsus taklif bilan boy xonadonlarga va cherkovlarga borib, bayramlarda hikmatli so'zlar aytganlar. Shuning uchun ham xalq paremiyalari yig'ilgan kitob «paremeynik» deb atalgan. V.I.Dal paremiyani «o'qimishlilar so'zi» deb ataydi va paremiya o'qiladigan kechada o'qimishli, ziyolilar ishtirok etishini keltirib o'tadi. Paremiyalar ko'proq pand-nasihat ruhida yozilgan.

Paremiologiyada quyma fikrni ifodalovchi eng mayda birlik paremiya deb ataladi. Paremiya - yunoncha "chuqur ma'noli gap, hikmatli so'z, ibora, maqol, matal" ma'nosini beradi . Paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm, frazeologizm kabi hikmatli iboralarni ikki planda o'rganadi:

1. Paremiyalar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyot shunoslik fanining o'rganish obyektidir, chunki bu hikmatli iboralarning ko'pchiligi ko'proq she'riy shaklga o'xshaydi va ularga o'xshatish (istiora, tashbeh, metafora), taqqoslash (antiteza), parallelizm, anafora, qofiyalash, evfonik vositalar (alliteratsiya, assonans), kinoya, piching, kesatiq kabi badiiy tasvir vositalari qo'llangan bo'ladi.

2. Paremiyalar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikmi ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyekti dir, chunki ular so'zlardan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni, strukturasi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega .

Manbalarda paremiya atamasi turli izoh va ta'riflar bilan keltiriladi. Xususan, I.I. Sreznevskiy paremiya so'zini qo'llanishiga ko'ra chegara langan leksik birlik sifatida ta'riflaydi va uning uch ma'nosini ko'rsa tadi: "hikoyat", "hikmatli so'zlar"; "ibodat paytida o'qiladigan muqaddas yozuvdan tanlab olingan joy"; "paremiyalarni qamrab olgan cherkov kitobi".

Demak, paremiya so'zining semantikasi tor doirada tushunilgan: u ibodat paytidagi muqaddas kitobdan tanlab olingan hikmatli so'zlarning alohida turini bildirgan. Aynan shunday qarashga asoslanib V.I.Dal paremiya atamasini "pand-nasihatli so'z", ya'ni didaktik

mazmundagi, ibratli matn sifatida ta'riflaydi. Shunday ekan, didaktik va keng yoyilganlik belgilariga asoslanib maqol, matal, paremiya atamaları semantik sathda o'zaro yaqinlashishi namoyon bo'ladi.

. Paremiyalarning ikki sathda adabiyotshunoslik va tilshunoslikda o'rganilishini qayd etib, ularga tilshunoslik nuqtayi nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi: "Paremiyalar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyektidir, chunki ular so'zlardan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham, mazmuni, tuzilishi, intonatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega". Mazkur fikrlar bilan ular paremiyalarga xos asosiy belgilarni ko'rsatadilar:

- 1) hikmat, o'git anglatishi;
- 2) ularning gap ko'rinishida bo'lishi;
- 3) tushuncha emas, fikrni ifodalashi;
- 4) o'ziga xos intonatsiyaga ega bo'lishi.

Paremiyalarda olamning lisoniy manzarasi qanday aks etadi? "Lisoniy manzara" o'zi nima? Endi "Lisoniy manzara", "olamning lisoniy manzarasi" haqida so'z yuritsak. Har qaysi til alohida olam manzarasiga egadir. Kishilar ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini yaratadi. Bunda tilda o'z aksini topgan insonning olamni o'ziga xos idroki namoyon bo'ladi. M.Xalimova maqolasida aytilishicha, olamning obrazini to'g'ridan to'g'ri reflekslar vositasida anglab bo'lmaydi, uni faqat o'ziga xos obrazlarni "o'z boshidan kechirish" orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini "odatdagi" bilish orqali anglab bo'lmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin. Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o'ng-chap, sharq-g'arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo'la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo'lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o'zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida angelaydi. Bu o'rinda milliy tajriba tilning barcha darajadagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Tilning o'ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko'radi.

O'zbek xalq maqollaridan biri Ot o'lsa, it quturar- qo'y o'lsa, bo'ri maqolini izohlashda: "Yaxshi odamlarning o'lim-yitimi, mag'lubiyati, muvaffaqiyatsizligi yomon, ko'ngli qora, dilgir odamlarni quvontiradi. Ular bu hodisa tufayli biror moddiy yo ma'naviy foyda ko'rsalar ham, hech bir foyda ko'rmasalar ham, baribir shodlanaveradilar. Zero, ichi qora odamlarning tabiati o'zi shunaqa, demoqchi bo'ladilar." Ot o'zbek madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi. U omad, muvaffaqiyat, farovon hayot, sadoqatli do'st, hamroh, balo-qazolardan saqllovchi (ot taqasini ko'zga ko'rinarli joyga olib qo'yish odati buning dalili) hisoblanadi. Ayniqsa, u yigitning sadoqatli hamrohi, do'sti sifatida xalq tomonidan talqin etib kelingan. Masalan, o'zbek xalq dostoni "Alpomish"da Boychibor Alpomishning eng yaqin do'sti sifatida gavdalanadi. Xalq tafakkurini namoyon etuvchi paremiologik fondga ham ot leksemasi ishtirokidagi paremiyalarning ko'pligi o'zbek xalqining bu jonotga bo'lgan ixlosini ko'rsatadi. Jumladan, 10000 dan ortiq maqollarni tahlil qilish jarayonida 283 ta maqolda ot leksemasi ishtirok

etganligi aniqlandi. Ularda ot ot, toy, arg'umoq, yo'rg'a, tulpor, qulun, qalmoqi ot, biya, do'non, totu nomlari bilan kelgan.

Sinxronik tadqiqda tilning ma'lum bir davrdagi turg'un holati va uning hodisalari tadqiq manbayi sifatida olinadi. Bu davr hozirgi kun ham, bundan bir necha asr muqaddam ham bo'lishi mumkin. Sinxronik tahlilda bir davrda yonma-yon turgan lisoniy hodisalar tavsiflanadi.

Diaxronik tadqiqda bir lisoniy hodisa turli taraqqiyot davrlarida olib ko'riladi va unda hodisalar orasida birin-ketinlik (oldin-keyinlik) munosabatlari o'rganiladi. Chunonchi, "Hozirgi o'zbek tilida paremiyalar" tadqiq mavzusi sinxronik tahlilga aloqador bo'lsa, "O'zbek tilidagi paremiyalar taraqqiyoti" mavzusi diaxronik tadqiq va tahlilga mansubdir. Biz ushbu dissertatsiyamizni sinxronik tahlil bilan yoritishga harakat qilamiz.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya (lot. paremiya - barqaror, logos - ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya (lot. paremiya - barqaror, grafo- yozmoq) sanaladi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Frazeologizmlar;
2. Maqol va matallar;
3. Aforizmlar.

O'zbek paremiologiyaini o'rganish rivojlanib borar ekan, uni boshqa tillar bilan chog'ishtirib o'rganish hamda ularning lingvokulturologik xususiyatlariga ham e'tibor bera boshlandi. Shu bilan birga, chet tillarni o'rganish hamda o'rgatishga berilgan bunday katta e'tibor fransuz tili sohasida yangidan-yangi tadqiqotlarni ochilishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, kishilar o'rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi, ya'ni fikrni boshqalarga yetkazuvchi qurol bu tildir. Shu bilan birga tilda milliy madaniyatning o'ziga xos oynasi bo'lgan, uni saqlovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatidagi frazeologik iboralarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. U yoki bu xalq yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tizimi, og'zaki adabiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati aynan iboralar orqali avloddan-avlodga yetkazib beriladi.

Milliy madaniyatning ko'p qirraliligini va uning millat tilidagi aksini an'anaviy tilshunoslik metodlari orqali aks ettirishning imkoni yo'q bo'lib, bu muammoni keng tadqiqi etish uchun fanlar kesimidagi qarash zarur edi. XX asrning oxirgi choragida til va madaniyatning o'zaro aloqadorligiga asoslangan fanlararo yangi yo'nalish paydo bo'lib, lingvokulturologiya nomini oldi.

Lingvokulturologiya umumlashma xarakterdagi yo'nalish hisoblanib, "til va madaniyat" muammolarini o'rganishda turli nuqtayi nazarlarni birlashtira oladi. V. fon Gumboldtning lingvofalsafiy qarashlarida bayon etilgan til va tafakkur aloqasini, Sepir-Uorfaning lingvistik aloqadorlik nazariyasini, L.S Vigotskiyning ruhiyat rivojining madaniy-tarixiy nazariyasini o'rganishga bag'ishlangan ishlari, N.I. Tolstoy, V.N. Toporov, A.N. Afanasev, Y.S. Stepanov, A.A. Potebnya va boshqalarning madaniyat belgilari va uning konstantlari tadqiqiga tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlari lingvokulturologiya uchun funda mental asos bo'lib xizmat qildi.

Xulosa: Ma'lumki paremiologik birliklar nutqga mazmun, mohiyat, asoslilik, obrazlilik hamda yorqinlik bag'ishlaydi. Paremiologiyalarning bu xususiyatlari hech qanday badiiy tasvir

nazarda tutilmaydigan so'zlashuv uslubida ham aniq saqlanib qoladi. Faqat badiiy talqinda paremiologiyalarning ta'sirchanlik xususiyati yanada yorqinroq namoyon bo'lib, yozuvchi qo'lida frazeologik birliklar qahramonining madaniyati, ma'naviyati, intellektual salohiyatini yaqqol ifodalay oladigan asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Tilda tayyor holda saqlanadigan birlik sifatida frazeologik birliklar har doim aniq ma'no, doimiy tarkib hamda strukturaga ega birliklardir. Tilning paremiologik fondi haqida gap ketganda tilshunoslar ularning an'anaviyligi, turg'unligi son hamda sifat jihatidan o'zgarmas birliklar ekanligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Tilning paremiologik fondining asosiy qismini tashkil qiluvchi paremiologiyalar etimologiyasi esa, tilda paremiologik birliklarning kelib chiqish tarixi va ularning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi Fransuz paremiologiyalari oddiyligi, maishiy xarakterga egaligi, ba'zan satirik yoki hajviy uslubiy bo'yoqqa ega bo'lishi va yuqori darajadagi emotsionalligi bilan kitobiy paremiologiyalardan ajralib turadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jumaniyozov Sh. A. Alisher Navoiyning "Sab'ai Sayyor" dostonida ranglar jilosi // "Science and Education" Scientific Journal. -B.110-118. Noyabr, 2020.
2. Kurbonova G. "Fransuz va o'zbek tillaridagi to'qima paremiologiyalarning chog'ishtirma tahlili // Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. –B. 222-226.
3. Mirzaaxmedova M. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari// Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. 2021.-B.274-279.
4. Mamadaliyev A., Nishonov A., Umbarov N. va boshq., Dictionnaire francais-ouzbek.-T.,2008. 587b.